

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**
TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

SALAYEV JASURBEK KOMILOVICH

**SANOATDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATI
SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI
(XORAZM VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.15 - “Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti”
08.00.03 – “Sanoat iqtisodiyoti”

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in economic
sciences**

Salaev Jasurbek Komilovich

Sanoatda kichik biznes subyektlari faoliyati samaradorligini oshirishning istiqbolli
yo'nalishlari (Xorazm viloyati misolida).....3

Салаев Жасурбек Комилович

Перспективные направления повышения эффективности деятельности
субъектов малого бизнеса в промышленности (на примере Хорезмской
области)29

Salaev Jasurbek Komilovich

Promising directions for improving the efficiency of small business entities in
industry (on the example of the Khorezm region)57

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....62

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2023.1.PhD/Iqt2716 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent arxitektura-qurilish universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lif portalı (www.ziyonet.uz)da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nurimbetov Ravshan Ibragimovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Muratova Shoxista Nigmatullaevna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Duschanov Tangriberdi Duschanovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot::

Toshkent davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.I.16.02 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil "___" ____ kuni soat ____ dari majlisda bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks (99871) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks (99871) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «____» _____ kuni tarqatildi.

(2023 yil) «____» _____ dari _____ raqamli reestr bayonnomasi).

G.K. Abduraxmanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

U.V. Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

R.X. Karlabayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot
fanlari doktori, professor

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**
TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

SALAYEV JASURBEK KOMILOVICH

**SANOATDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATI
SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI
(XORAZM VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.15 - “Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti”
08.00.03 – “Sanoat iqtisodiyoti”

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent - 2023

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Jahonda sodir bo‘layotgan iqtisdoiylar sharoitida kichik biznes ko‘plab, xususan, rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotining asosiy tayanchi sifatida qaralmoqda. Kichik va o‘rtalik biznes dunyo hamjamiyatidagi korxonalarining katta qismini tashkil qilgani holda yangi ish o‘rinlarini yaratish va global taraqqiyotni ta’minlashga muhim hissa qo‘shmoqda. Jahondagi jami korxonalarining qariyb 90 foizi va bandlarning 50 foizi kichik va o‘rtalik biznes hissasiga to‘g‘ri keladi. Agar norasmiy faoliyat ko‘rsatayotgan sub‘yektlarni ham hisobga oladigan bo‘lsak, ushbu ko‘rsatkichlar bundan yuqori qiymatga ega bo‘ladi. Jahan banki hisob-kitoblariga ko‘ra, 2030-yilga borib, o‘sib borayotgan global ishchi kuchini ish joyi bilan ta’minlash uchun 600 million ish o‘rniga zarurat seziladi, bu esa, o‘z navbatida, kichik va o‘rtalik biznesni rivojlantirishni butun dunyo bo‘ylab ko‘plab hukumatlar uchun ustuvor vazifaga aylantiradi¹.

Jahonda COVID-19 pandemiyasi davrida kichik biznes sub‘yektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash², pandemiyaning sanoat tarmoqlardagi kichik biznes sub‘yektlari faoliyatiga ta’siri va ushbu sub‘yektlarning innovatsion usullardan foydalangan holda boshqaruvga qanchalik o‘zgarish kiritganligi³ kabi yo‘nalishlarda keng ko‘lamli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada sanoat taraqqiyotini ta’minlash va bunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub‘yektlari samaradorligini oshirishning istiqbolli yo‘nalishlarini ishlab chiqish, iqtisodiy tebranishlar sharoitida kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini aniqlash, mavjud imkoniyat va salohiyatdan kelib chiqqan holda kichik biznesning yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlashda miqdoriy tadqiqot usullaridan foydalananishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Yangi O‘zbekistonda sanoat rivojini ta’minlash va yuqori qo‘shilgan qiymatga ega bo‘lgan raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub‘yektlari rolini oshirish, ularning samaradorligini ta’minlashning istiqbolli yo‘nalishlari ishlab chiqish, shuningdek, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, ishsizlikni qisqartirish, innovatsion hududlarni shakllantirish borasida maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoit yaratish, xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish” vazifasi qo‘yilgan⁴. Mazkur vazifalar ijrosini ta’minlashda sanoatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub‘yektlari samaradorligini oshirishning istiqbolli yo‘nalishlarini ishlab chiqish, mavjud imkoniyatlar, iqtisodiyotning istiqbolli yo‘nalishlarini hisobga olgan holda kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash,

¹ Small and Medium Enterprises (SMEs) Finance – <https://www.worldbank.org/en/topic/smefinance>

² Bartik, Alexander, Marianne Bertrand, Zoë B. Cullen, Edward L. Glaeser, Michael Luca, and Christopher Stanton.“The Impact of COVID-19 on Small Business Outcomes and Expectations.” Proceedings of the National Academy of Sciences 117, no. 30 (July 28, 2020).

³ Harel, Ronen. (2021). The Impact of COVID-19 on Small Businesses‘ Performance and Innovation. Global Business Review. 097215092110391. 10.1177/09721509211039145.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.

rivojlantirishning samarali hamda shaffof mexanizmlarini ishlab chiqish borasidagi tadqiqotlar ko‘lамини yanada kengaytirish maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli, 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079 Farmonlari, 2022-yil 18-martdagi “2022-2026-yillarda “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-172-sonli hamda 2020-yil 17-avgustdagi “Xorazm viloyatida tadbirkorlikni rivojlantirish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4810-sonli qarorlari va mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu ilmiy tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqoti ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Kichik biznesning fundamental muammolari R.Xizrich, M.Piters, K.Kleyton, V.Gribov, N.Kruglova⁵ va boshqa ko‘plab xorijiy olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Shuningdek, kichik biznesning joriy rivojlanish tendensiyalari, xususan, pandemiya ta’sirini baholash, kichik biznesda innovatsoin jarayonlarni rivojlantirish, sanoatlashgan hududlarni tashkil etishda kichik biznesning rolini oshirish va boshqa qator masalalar Kalogianiddis Stavros, S.Kao, D.Leung, R.Harel., D.Shvatz, D.Kaufmann, K.S. Marquyes, J.Ferreira, K.Yev Vong, Y.Aspinwall, R.B.Sappey kabi qator olimlar tomonidan tadqiq qilingan⁶.

MDH davlatlarida V.V.Visokov, O.Y.Akimov, S.M.Basharina, N.V.Morgunova, N.M.Filimonova, S.N.Tkachuk, Y.A.Mazilov, A.Y.Kremin, N.R.Kelchevskaya, A.N.Pyatkov kabi olimlar ishlari kichik biznesni rivojlanish evolyutsiyasi, hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishda kichik

⁵ Xizrich R., M.Piters. Predprinimatelstvo ili kak zavesti sobstvennoye delo i dobitsya uspexa: Vip. I. Predprinimatel i predprinimatelstvo: Per.s angl./Obsh. red.B.C. Zagashvili.-M.:Progress, 1992.-160 s.; K.Kleyton. Resheniye problemi innovatsiy v biznese. -M.: alta-biznes, 2004.; A.Smit. Priroda i bogatstvo narodov. M.:Delo, 1993.; Gribov V.D. Osnovi biznesa, -M.: Finansi i statistika, 2000.; Kruglova N.Yu. Osnovi biznesa, -M.: izdatelstvo RDL, 2003.

⁶ Kalogiannidis, Stavros. (2020). Covid Impact on Small Business. International Journal of Social Science and Economics Invention. 6. 10.23958/ijssesi/vol06-i12/257.; Cao, S., & Leung, D. (2020). Credit constraints and productivity of SMEs: Evidence from Canada. Economic Modelling, 88, 163–180; Harel, R., Schwartz, D., & Kaufmann, D. (2020). Sharing knowledge processes for promoting innovation in small businesses. European Journal of Innovation Management. <https://doi.org/10.1108/EJIM-04-2020-0122>; Marques, C. S., & Ferreira, J. (2009). SME innovative capacity, competitive advantage and performance in a ‘traditional’ industrial region of Portugal. Journal of Technology Management & Innovation, 4(4), 53–68.; Yew Wong, K., & Aspinwall, E. (2004). Characterizing knowledge management in the small business environment. Journal of Knowledge Management, 8(3), 44–61.; Sappey R.B. Industrial Relations: A Small Business Perspective. Journal of Industrial Relations. 1985;27(3):350-363. doi:10.1177/002218568502700305 o, S., & Leung, D. (2020). Credit constraints and productivity of SMEs: Evidence from Canada. Economic Modelling, 88, 163–180.

biznesning ahamiyati, kichik sanoat tashkilotlarining davlat tomonidan tartibga solish masalalari yoritib berilgan⁷.

O‘zbekistonlik olimlar mamlakatimizda kichik biznes muammolarini hal qilishda o‘zlarining ilmiy ishlari bilan hissa qo‘shdilar. Jumladan, Y.Abdullayev, Sh.Yuldashev, T.Ahmadjonov, N.Fattohov, S.G‘ulomov, T.D.Do‘stjanov, S.K.Salayev, A.N.Samadov, G.Ostanaqulova, N.Q.Muradova, E.Egamberdiyev, Sh.Otajonov va boshqalarni aytib o‘tish mumkin⁸.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tishi lozimki, kichik biznesga oid masalalarni o‘rganish, xususan, bugungi kundagi o‘zgarishlar sharoitida omillarni aniqlash, hududlarni sanoatlashtirishda kichik biznesning ta’sirini baholash masalalari yetarlicha o‘rganilmagan. Yangi O‘zbekistonni barpo etish hamda aholi turmush farovonligini oshirishda kichik biznesning o‘rni juda muhimdir. Bu borada o‘z yechimini kutayotgan ancha muammolar ham paydo bo‘lgan. Masalan, kichik biznes faoliyati natijalarini baholash, kichik biznesda daromadlar va xarajatlarni taqqoslash, kichik biznes infratuzilmasini rivojlantirish, eksport masalalarini hal qilish va boshqalar shular jumlasidandir.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejali bilan bog’liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent arxitektura-qurilish universitetining ilmiy tadqiqot rejali doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi sanoatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yeqtleri faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari:

kichik biznes metodologiyasini rivojlantirish, uning institutsional asoslarini ishlab chiqish;

O‘zbekistonda kichik biznesning rivojlanish tendensiyalari tadqiq qilish;

kichik biznesning taraqqiyotini ta’minlashda institutsional o‘zgarishlarning ahamiyatini asoslash;

Xorazm viloyatida sanoat rivojlanishini qiyosiy va statistik tahlil qilish, tedensiyalari va o‘ziga xos xususiyatlari aniqlash;

⁷ Visokov V.V. Maliy biznes: made in Russia: Nauchno-prakticheskoye posobiye. Rostov-na-Donu: Izdatelskiy sentr DGTU. 1999. 120 s.; Akimov O.Y. Maliy i sredniy biznes: evolyutsiya ponyatiy, rinochnaya sreda, problemi razvitiya. -M.:Finansi i statistika, 2003. - 192 s.; Basharina S. M., Morgunova N. V., Filimonova N. M. Uchebnoye posobiye po dissipline Ekonomika malogo i srednego predprinimatelstva.; Tkachuk S.N. Maliy biznes – vajniy rezerv razvitiya// Ekonomicheskiye i sotsialnie peremeni: fakti, tendensii, prognoz, 2010. – №3(11); Mazilov Y.A., Kremin A.Y. Rol malogo biznesa v sotsialno-ekonomiceskem razvitiu rossiyskix regionov: problemi i tendyensii// Problemi razvitiya territorii, 2018. – №2(94). – doi: 10.15838/ptd/2018.2.94.; Kelchevskaya N.R., Pyatkov A.N. Spetsifikada deyatelnosti malix promishlennix organizatsiy v ramkax gosudarstvennogo regulirovaniya / N.R. Kelchevskaya, A.N. Pyatkov // Ekonomika i menedzhment sistem upravleniya. – 2016. – № 3.2

⁸ Abdullayev Y., Yuldashev Sh. Maliy biznes i predprinimatelstvo, -T.: Iktisod-moliya, 2006.; Axmedjanov T.B., Fattaxov A.A. Osenka biznesa, -T.: TGEEU, 2002.; Gulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. T.: TGEU, 1996.; T.D.Do‘stjanov, S.K.Salayev. Kichik biznesning katta imkoniyatlari. -Urganch.: Xorazm, 1997.; A.N.Samadov, G.Ostanaqulova. Kichik biznes va tadbirkorlik. -T.: Iqtisod- moliya, 2008.; Muradova N.Q. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo’llab-quvvatlashning nazariy asoslarini takomillashtirish.. Iqt.fan.doktori diss.avtoreferati. -T.2016.; Egamberdiyev E., Xo‘jaqulov X. Kichik biznes va tadbirkorlik, -T.: Ma’naviyat, 2003. Otajonov Sh. Innovatsiya faoliyati infratuzilmasini boshqarish samaradorligini oshirish., -T.: Fan va texnologiyalar, 2018.

sanoatning hamda sohadagi kichik biznes sub'yeqtalarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta'sirini baholash;

viloyat sanoatida kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va infratuzilmasini tashkil etishning istiqbolli yo'naliшlarini aniqlash;

kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati samaradorligini baholash uslubiyatini takomillashtirish;

hududda sanoat mahsuloti ishlab chiqarishda kichik biznesning rolini oshirishning istiqbolli yo'naliшlari ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida Xorazm viloyati sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yeqtleri olingan.

Tadqiqotning predmetini sanoatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yeqtleri samaradorligini oshirish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya ishini tayyorlashda tizimli tahlil, ilmiy mushohada, tahlil va sintez, iduksion va deduksion tahlil usullari, ilmiy abstraksiya, regression tahlil, korrelyatsion tahlil, diskontlash, iqtisodiy-matematik modellashtirish, sabab-oqibat tahlili, qiyosiy va dinamik tahlil va boshqa usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra umume'tirof etilgan ta'rifi hamda hisoblashning yagona uslubiy asosi mavjud bo'lman "kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari samaradorligi" tushunchasi iqtisodiy mazmunining konseptual asoslarini rivojlantirish va takomillashtirib borish, kichik va yirik biznesning o'ziga xos jihatlarini tadqiq qilgan holda asosiy farqli xususiyatlarini aniqlash, kichik biznes rivoji uchun qulay muhitni shakllantirish, tadbirkorlik faoliyatini xatarlardan holi etishning omili sifatidagi metodologiyani o'rganish zarurligi asoslangan;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari samarali faoliyatini ta'minlovchi infratuzilma obyektlari qurilishini moliyalashtirishga yo'naltirilgan mahalliy hokimlik huzurida Infratuzilma jamg'armasini tashkil etish taklifi asoslangan;

viloyat kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari sanoat ishlab chiqarishini rag'batlantirishda Xorazm viloyati va Toshkent shahri o'rtasida eksport qiluvchilarga temir yo'l yuk qatnovi tariflariga 50 foizga qadar chegirma belgilash taklifi asoslangan;

Xorazm viloyati sanoat tarmoqlarida ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari soni hamda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ko'p variantli ekonometrik modellar asosidagi 2026 yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotining YHMga ta'siri, shuningdek, yalpi qo'shilgan qiymatni oshirishda sanoatda yaratilgan qo'shilgan qiymatning ta'siri asosida baholanilgan;

kichik biznes rivojini ta'minlashda infratuzilmaning ahamiyati asoslanilgani holda sanoat sohasida kichik biznes taraqqiyotini ta'minlash uchun innovatsiya infratuzilmasini elektron bazasini shakllatirish tuzilmasi ishlab chiqilgan;

KBXT sub'yeqtalarining samaradorligini baholash uslubiyati integral ko'rsatkichlarni hisoblash asosida takomillashtirilgan;

Xorazm viloyatida sanoat mahsulotlari hajmi sanoat sohasida ro'yxatdan, faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes sub'yeqtлari sonini prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ilg'or xorij tajribalarini o'rganish va umumlashtirish, sanoatni rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yeqtлari samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy asoslari borasidagi mavjud ilmiy tadqiqod ishlarini qiyosiy va tanqidiy nuqtayi nazardan tahlil qilish, olingan ilmiy natijalarning ishonchliligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, ishlab chiqilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda olingan natijalarning mas'ul tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohланади.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan imliy taklif va tavsiyalarning mamlakatda sanoatni rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yeqtлari samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy apparatni boyitishi bilan izohланади.

Tadqiqot obyektini o'rganish va tahlil etish asosida olingan natjalarning amaliy ahamiyati sanoatni rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yeqtлari samaradorligini oshirish uchun dasturlar hamda strategik rejalarни ishlab chiqish, sanoat sohasida kichik biznes sub'yeqtлari faoliyati samaradorligini oshirishda kelayotgan muammolarni aniqlash, bartaraf etish yo'naliishlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohланади. Tadqiqot natijalaridan magistratura mutaxassisliklari hamda bakalavr yo'naliishlari uchun "Kichik biznes iqtisodiyoti" "Tadbirkorlik asoslari" va "Sanoat iqtisodiyoti" va kabi fanlar bo'yicha o'quv dasturlarini takomillashtirishda foydalaniladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sanoatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yeqtлari samaradorligini oshirishning istiqbolli yo'naliishlarini bo'yicha olingan ilmiy natjalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra umume'tirof etilgan ta'rifi hamda hisoblashning yagona uslubiy asosi mavjud bo'lмаган "kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari samaradorligi" tushunchasi iqtisodiy mazmunining konseptual asoslarini rivojlantirish va takomillashtirib borish, kichik va yirik biznesning o'ziga xos jihatlarini tadqiq qilgan holda asosiy farqli xususiyatlarini aniqlash, kichik biznes rivoji uchun qulay muhitni shakllantirish, tadbirkorlik faoliyatini xatarlardan holi etishning omili sifatidagi metodologiyani o'rganishga oid ishlab chiqilgan nazariy-uslubiy materiallardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun mo'ljallangan "Tadbirkorlik asoslari" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Urganch

davlat universiteti 2023-yil 26-iyundagi 91-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyatga joriy etilishi natijasida talabalarda kichik va yirik biznesning o'ziga xos jihatlarini tadqiq qilgan holda asosiy farqli xususiyatlarini aniqlash, kichik biznes rivoji uchun qulay muhitni shakllantirish, tadbirkorlik faoliyatini xatarlardan holi etishning omili sifatidagi metodologiya to'g'risidagi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish imkoni yaratilgan;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari samarali faoliyatini ta'minlovchi infratuzilma obyektlari qurilishini moliyalashtirishga yo'naltirilgan mahalliy hokimlik huzurida Infratuzilma jamg'armasini tashkil etish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 17 avgustdagi PQ-4810-son "Xorazm viloyatida tadbirkorlikni rivojlantirish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2023 yil 9 avgustdagi 11/02-20-9630-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyatga joriy etilishi natijasida infratuzilma obyektlari qurilishini moliyalashtirish orqali viloyat sanoat tarmoqlaridagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining samarali faoliyatini ta'minlash imkoni yaratilgan;

viloyat kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari sanoat ishlab chiqarishini rag'batlantirishda Xorazm viloyati va Toshkent shahri o'rtasida eksport qiluvchilarga temir yo'l yuk qatnovi tariflariga 50 foizga qadar chegirma belgilash

taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 17 avgustdagi PQ-4810-son "Xorazm viloyatida tadbirkorlikni rivojlantirish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2023 yil 9 avgustdagi 11/02-20-9630-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyatga joriy etilishi natijasida viloyatdagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga mahsulotlarni eksport qilishda imtiyozlar berish orqali sanoat ishlab chiqarishini rag'batlantirish imkoni yaratilgan;

Xorazm viloyati sanoat tarmoqlarida ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari soni hamda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ko'p variantli ekonometrik modellar asosidagi 2026 yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan hududlardagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirishning istiqbol dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2023 yil 9 avgustdagi 11/02-20-9630-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyatga joriy etilishi natijasida Xorazm viloyatida ro'yxatdan o'tgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari subyektlari sonining 2,3 marta, faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari sonining 2,2 marta oshishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 10 ta ilmiy ishlar, shu jumladan, OAK e'tirof etgan jurnallarda 3 ta, nufuzli horijiy

jurnallarda 2 ta ilmiy maqola, shuningdek, Respublika va xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyalarda 5 ta ma’ruza tezislari nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati va ilovalardan iborat bo’lib, uning hajmi 148 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish qismida** tadqiqot mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob’yekti va predmeti tavsiflab berilgan, O’zbekiston Rsepublikasida fan va texnikaning ustuvor vazifalariga muvofiqligi ko’rsatib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqidagi ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning “**Bozor sharoitida kichik biznesni tashkil etish va rivojlantirishning ilmiy-metodologik jihatlarini tadqiq etish asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida KBXTning konseptual asoslarini rivojlantirish, O’zbekistonda kichik biznesning rivojlanish tendensiyalari va sohadagi institutsional o’zgarishlarning ahamiyati keltirib o’tilgan.

Jahon tajribasidan ma’lumki, kichik biznes har bir mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlashda asosiy vosita, lokomotiv vazifasini bajarib kelmoqda, shuningdek, muhim ijtimoiy-iqtisodiy muammolar: o’rta sinfni shakllantirish, aholi bandligini ta’minlash va daromadlarini oshirishi vositasi sifatida qaralib kelinmoqda.

Biznes va tadbirkorlik tushunchasi xorijiy hamda mahalliy olimlar tomonidan turlicha talqin qilingan. Adam Smit o’zining buyuk asarida biznes tushunchasini - bu pul topish manbai deb ifodalagan⁹. Avstriyalik olim Y.Shumpeter “Biznes – bu foya keltiruvchi faoliyatdir” degan xulosaga keladi¹⁰. Buyuk Xitoy faylasufi Konfusiy biznesni insonlar harakati natijasida daromad olish deb izohlagan. Amerikalik olim P.Xizrich biznesni bir yangilik deb tushunib, ushbu jarayonda bir qiymatga ega bo’lib, bunga ma’lum bir vaqt va kuch sarflab, pul topishni ifodalagan¹¹. Akademik S.S.G‘ulomov biznesga foya olish manbalaridan biri deb ta’rif bergan¹². Professor Y.Abdullayev esa biznes tushunchasiga daromad olish manbaidir deb izoh bergan¹³.

O’zbekistonda kichik biznes (kichik korxonalar) mustaqillik yillarining dastlabki davrida paydo bo’ldi. Chunki, shu davrga kelib, mamlakatdagi barcha katta korxonalar faoliyati inqirozga uchrab, to’xtab qolgan edi. Bozor iqtisodiyotining boshlang’ich davrida mamlakatimizda biznesning barcha turlari o’z faoliyatini boshladi. Lekin, biroz vaqt o’tgandan so’ng katta va o’rta biznes rivoj topmadi. Chunki, katta va o’rta biznesda KBXTdan farqli o’laroq ularga zarur bo’lgan texnologiyalarni yetkazib berish murakkab bo’lib qoldi, ularni xorijdan keltirishga

⁹ Smit A. Priroda i bogatstvo narodov. -M.: - Ekonomika, 1995.

¹⁰ Shumpeter Y. Teoriya ekonomicheskogo razvitiya. -M.: - Progress, 1982.

¹¹ Xizrich R., M.Piters. Predprinimatelstvo ili kak zavesti sobstvennoye delo i dobitsya uspexa: Vip. I. Predprinimatel i predprinimatelstvo: Per.s angl./Obsh. red.B.C. Zagashvili.-M.: Progress,1992.-160 s.

¹² G‘ulomov S.S. Menejment va biznes asoslari. -T.: O’qituvchi, 1997, 32-b.

¹³ Abdullayev Y., Yuldashev Sh. Maliy biznes i predprinimatelstvo. -T.: Iqtisod-moliya, 2006.

katta investitsiyalar talab qilardi, mamlakatning investitsion imkoniyatlarini cheklanganligi bu yo‘nalishdagi muammolarni keltirib chiqara boshladi.

Hozirgi vaqtida har bir davlatning iqtisodiy barometri bo‘lib, kichik biznesni rivojlantirish sanaladi. O‘zbekiston ham oxirgi yillarda kichik biznes va kichik korxonalarini barpo etishda katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yil 1-yanvar holatiga mamlakatimiz iqtisodiyotining turli tarmoq va sohalarida jami 488936 ta kichik biznes subyektlari faoliyat yuritmoqda va shuningdek, bandlikdagi ulushi 74,4 foizni tashkil qiladi. Ayniqsa, Prezidentimiz tashabbuslari bilan kichik biznesning yangi shakllari rivojlanmoqda. Xususan, qishloq xo‘jaligi sohasida yangi biznes shakllari paydo bo‘ldi¹⁴.

O‘zbekistonda kichik biznes va kichik korxonalar tez sur’atlar bilan rivojlnana boshladi. Natijada mamlakat va uning hududiy birliklarida kichik biznes va xususiy tadbirdorlikning miqdori va ulushi oshib bordi. Keyingi besh yillikda Harakatlar strategiyasi doirasida xususiy mulkni himoya qilishning qonuniy asoslarini shakllantirish va ular uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish bo‘yicha amalga oshirilgan qator chora-tadbirlar va dasturlar kichik biznes sub’yektlari miqdorining keskin oshishiga olib keldi. Jumladan, O‘zbekistonda hududlarida ro‘yxatdan o‘tgan kichik tadbirdorlik sub’yektlari sonining keyingi besh yildagi o‘zgarishi ayrim hududlarni hisobga olmagadan ikki martadan ko‘p oshganligi kuzatiladi.

1-jadval

O‘zbekistonda hududlarida ro‘yxatdan o‘tgan KBXT sub’yektlari soni¹⁵

H							O’sish sura’ti
O‘zbekiston Respublikasi							
Qoraqalpog‘iston Respublikasi							
Farg‘ona							

1-jadvalga ko‘ra, so‘nggi yillarda mamlakatimizda KBXT tez sur’atlar bilan o‘sish ta’minlangan. Jumladan, o‘rtacha o‘sish sur’ati 17,0 foizni tashkil qilmoqda. Ayniqsa, Navoiy, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida u yuqori darajada bo‘lgan. Shu bilan bir qatorda, KBXT rivojlanishi nisbatan past bo‘lgan hududlar ham mavjud bo‘lib, Andijon viloyatida ro‘yxatdan o‘tgan KBXT sub’yektlari soni

¹⁴ Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 30 yillik bayramiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagisi nutqi (<https://president.uz/uz/lists/view/4596>).

¹⁵ Statistika ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

tadqiq etilgan davrda 1,7-martaga, Namangan va Sirdaryo viloyatlarida 1,9-martaga oshgan.

KBXTning rivojlanishni ifodalovchi qator ko‘rsatkichlar mavjud bo‘lib, ular dinamikasi sohadagi o‘zgarishlarni ifodalaydi (2-jadval).

2-jadval

Kichik biznes rivojlanganlik darajasining ko‘rsatkichlari dinamikasi¹⁶

Nº	Ko‘rsatkichlar	2017	2018	2019	2020	2021
1.	Kichik biznesning YIM dagi ulushi, shu jumladan, kichik korxonalar (%)	65,3	62,4	56,0	55,7	54,9
2.	Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub’yektlari soni (ming)	229666	262930	334767	411203	462834
3.	Kichik biznesda band bo‘lganlar soni (mln.kishi)	10541,5	10128,8	10318,9	9865,7	10070,7

2-jadvaldan ko‘rinadiki, oxirgi 5 yilda KBXT sub’yektlarining tez sur’atlar bilan o‘sib bormoqda. Shu bilan birga, boshqa tomondan ularning YIMdagi ulushi pasayishi kuzatilmoxda. Chunki, ushbu ko‘rsatkichlar bo‘yicha O‘zbekiston rivojlangan mamlakatlar darajasiga yetib oldi va endi ularni yanada oshirish uchun yangi imkoniyatlarni izlab topish, soha taraqqiyotini ta’minlash bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borish talab qilinadi. Shuningdek, faoliyat ko‘rsatayotgan KBXT sub’yektlari sonida ham ijobiy tendensiya ta’minlangani holda 2 martadan ko‘p miqdorga oshganligini kuzatish mumkin.

O‘zbekistonning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri - bu hududlarni mutanosib rivojlantirishdir. Ma’lumki, bu holat sobiq ittifoqdan qolib kelayotgan muammolardan hisoblanadi. Chunki o’sha davrlarda bu muammoga e’tibor juda past darajada edi. Mustaqillik sharofati bilan hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi. Hozirda mamlakatimizning har bir hududida KBXT tez sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Shuningdek, KBXT iqtisodiyotning lokomotivi vazifasini bajargani holda muhim iqtisodiy ko‘rsatkichlardagi yuqori sur’atlardagi o‘zgarishini ta’minlamoqda.

Ishlab chiqarishning nomutanosib rivojlanganligi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Jizzax, Namangan, Sirdaryo, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarining sanoat rivojlanish darajasi nisbatan pasayishi bilan ajralib turgan. Bu hududlarda sanoatning YHM tarkibidagi ulushi 25 foizdan kam bo‘lib, Respublika umumiyl ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 2,1-4,7 foiz va aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan ishlab chiqarish hajmi Respublika o‘rtacha ko‘rsatkichiga nisbatan 2,1-4,7 marta kam. Buning asosiy sababi mazkur hududlarning xomashyo va birlamchi ishlab chiqarish mahsulotlariga ixtisoslashganligi hamda mavjud resurs salohiyati va imkoniyatlaridan to‘la foydalanmaganligi hisoblanadi. Demak, bu sohaning rivojlanishida nomutanosibliklar mavjud. Bu muammoning eng katta jihat shundaki, KBXTning ko‘pchiligi yirik shaharlar va ularning atroflarida joylashgan. Buning asosiy sababi tumanlar va qishloq joylarda infratuzilma keng rivojlanmagan.

Hududlar taraqqiyotida, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohalarini o‘ta muhim ahamiyatga ega. Masalan, Jizzax, Namangan, Samarqand, Surxandaryo,

¹⁶ Statistika ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Xorazm viloyatlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YHMdagi ulushi 70 foizdan yuqoridir. Boshqa qolgan barcha viloyatlarda bu ko'rsatkichning ulushi respublika darajasidan (56 foiz) yuqori.

Yuqorida keltirib o'tilganlardan ma'lum bo'lishicha, institutsional o'zgarishlar kichik biznes va tadbirkolikni taraqqiy topishi, bozor munosabatlarini shakllanishi uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi, mamlakatimizda ushbu yo'nalishda qator chora-tadbirlar amalgalash oshirilib kelinmoqda. Biroq mamlakat darajasidagi isolohotlar umumiyligi ko'rsatkichlarda o'z aksini topmoqda, ushbu ko'rsatkichlarning tarkibiy qismi hisoblangan hududlar kesimidagi ko'rsatkichlarning bir-biridan katta miqdorga farq qilishi soha rivojini ta'minlashda foydalanilmayotgan imkoniyatlar mavjudligini asoslaydi (1-rasm).

Mikrodarajadagi omillarga quyidagilarni kiritish mumkin

- ishlab chiqarish texnologiyasini rivojlantirish;
- yangi xomashyo va materiallardan foydalanish;
- katta korxonalar bilan integratsion va kooperatsion aloqalarni kuchaytirish;
- zamonaviy boshqaruv usullaridan foydalanish, uni mexanizmini takomillashtirish;
- klasterizatsiya va diversifikatsiya siyosatini amalgalash oshirish;
- raqobatbardosh va sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish;
- yangi fan-texnika va innovatsiya g'oyalaridan keng foydalanish;
- kadrlar masalasini yaxshilash, ularning malakasini va ishbilarmonligini oshirish;
- xarajatlarni kamaytirish hisobiga mahsulot tannarxini pasaytirish;
- foya, rentabellik va mehnat umumdarligini oshirish;
- korxonani ijaraga berishni qo'llab-quvvatlash;
- tashqi iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish;
- eksport hajmini oshirib borish.

Makroiqtisodiy omillarga quyidagilarni keltirish mumkin:

- xalqaro valyuta bozoridagi vaziyat;
- resurslarning jahon bozoridagi holati;
- jahon bozoridagi raqobat;
- umumxo'jalik konyukturasi;
- ilmiy-texnik rivojlanish;
- atrof-muhitni himoya qilish;
- investitsiya muhit;
- xalqaro mehnat bozori;
- siyosiy muhit;
- iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish;
- demografik vaziyat;
- inflyatsiya tendensiyalari;
- integratsiya va kooperatsiya rivojlanishi;
- axboratlashuv rivoilanishi;

1-rasm. Kichik biznes va kichik korxonalarni rivojlantirish starategiyasini ishlab chiqishga ta'sir etadigan omillar tizimi¹⁷

Umuman olganda, amalda kichik biznes va kichik korxonalarni rivojlantirish starategiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun, avvalambor, ularga ta'sir etadigan omillar tizimini shakllantirish institutsional o'zgarishlarni asosiy natijalaridan biri hisoblanadi. Buni shakllantirish uchun, fikrimizcha, omillarni ikki guruhga bo'lish maqsadga muvofiq.

¹⁷ Muallif ishlanmasi

Birinchisi, mikro darajadagi omillar, ikkinchisi, makro darajadagi omillar. Ushbu omillar kichik biznes va tadbirkorlikning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Dissertatsiyaning “Xorazm viloyati sanoatida kichik biznes rivojining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotgan ta’sirini baholash” deb nomlangan ikkinchi bobida Xorazm viloyatida sanoatni rivojlanish tendensiyalari va o‘ziga xos xususiyatlari, kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi statistik tahlili va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta’sirini baholash masalalari ko‘rib o‘tiladi.

Sanoat inqilobi natijasida tarkibiy o‘zgarishlarning markaziga aylangan sanoatlashtirish ishlab chiqarish va aholi bandligini misli ko‘rilmagan darajada oshirdi, natijada daromadlarning ham yuqori sur’atlarda o‘sishi ta’minlandi. Bu esa, o‘z navbatida, sanoatni rivojlantirish barqaror iqtisodiy o‘sishga erishishning muhim yo‘nalishi ekanligini asoslاب berdi¹⁸.


Viloyatda YHMida sanoatning ulushini oshishi kuzatilgan, ammo ushbu o‘zgarishning qanchalik darajada samarali ekanligini baholash uchun YIMda sanotning ulushi bilan qiyosiy tahlili amalga oshirib o‘tildi. Amalga oshirilgan tahlillarimizga ko‘ra, viloyatda sanoatning barqaror o‘sish sur’atlari ta’milanayotgan bo‘lsa-da, YHMda sanoatning ulushi mamlakat miyosidagi ko‘rsatkichga nisbatan 2 martadan ko‘p miqdorga past. 2010-2021-yillarda sanoatning YIMdagi ulushi 18,7 foizdan 27,8 foizga, ya’ni 1,5 martaga oshgan. Xorazm viloyatida esa mos ravishda 7,2 foizdan 13,3 foizga yoki 1,8 martagacha oshgan. Demak, keyingi 10 yillikda viloyatda sanoatning rivojlanishi nafaqat ijobjiy tendensiyaga ega bo‘lgan, balki yuqori o‘sish sur’atlari ta’minlangan.

Yuqorida olingan natijalarga asoslangan holda shuni ta’kidlash mumkinki, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda diversifikatsiyaning amalga oshirilishi natijasida mahsulot sonini ko‘payishi evaziga boshqa va muhim yo‘nalishlarining ulushida pasayish kuzatilmoqda. Sanoatda to‘qimachilikning ulushi mamlakat miqyosida 3 birlikka, viloyat miqyosida 2 birlikka kamaygan. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha muhim farqlardan biri metallurgiya sanoatida kuzatiladi. Mamlakat miqyosida ushbu yo‘nalishning ulushi tadqiq qilinayotgan davrda ikki barobardan oshiqroqqa ko‘paygani holda 25,6 foizga yetgan bo‘lsa, viloyat miqyosida esa ushbu yo‘nalishning ulushini 0,5 foizga ham yetmasligini kuzatish mumkin.

Amalga oshirilgan qiyosiy tahlil natijalariga ko‘ra, viloyatda yengil sanoatni rivojlantirish istiqbolli yo‘nalishlardan hisoblanadi, chunki to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 22,5 foizni tashkil qilgani holda kiyim ishlab chiqarish ulushi 0,7 foizni tashkil qilmoqda. Bundan tashqari, keyingi yillarda hukumatimiz tomonidan alohida e’tibor qaratilib kelinayotgan farmatsevtika sohasini rivojlantirish ham istiqbolli yo‘nalishlardan biri sifatida qaraladi.

Viloyatda sanoat mahsulotlari yetishtirishda kichik biznes sub’yektlarining rolini jami mahsulot yetishtirishda kichik biznesning ulushi dinamikasini qiyosiy tahlili asosida qarab chiqamiz (2-rasm).

¹⁸ Pacheco-López, P. and Thirlwall, A.P.(2013) A New Interpretation of Kaldor’s First Growth Law for Open Developing Economies. University of Kent, School of Economics Discussion Papers, KDPE 1312.



2-rasm. O‘zbekiston Respublikasi va Xorazm viloyatida sanoatida kichik biznes ulushini o‘zgarish dinamikasi¹⁹.

Umumiy hisobda Xorazm viloyatida kichik biznesning sanoatdagi ulushi nisabatan yuqori qiymatga ega bo‘lganligi kuzatiladi, ammo ba’zi yillarda ushbu ko‘rsatkichning keskin o‘zgarish holatlarini ko‘rish mumkin. Jumladan, 2014-yilda respublika miqyosida o‘sish sur’ati saqlab qolingan bo‘lishiga qaramasdan, viloyatdagi ulush oldingi yildagi 36,8 foizdan 29,7 foizga qadar pasaygan. Natijada, tadqiq qilinayotgan davrda viloyatning ulushi mamlakat miqyosidagiga nisbatan birinchi marta past qiymatga ega bo‘lgan. Keyingi ikki yildagi keskin o‘sish viloyat sanoatida kichik biznesning keyingi o’n yillikdagi maksimal darajasiga yetishini va qaytadan ulushni mamlakat miqyosidagiga nisbatan oshishiga olib kelgan.

Soha rivojini tavsiflovchi yana bir muhim indikatorlardan biri - bu sohaga tegishli bo‘lgan korxona va tashkilotlarning jamiga nisbatan ulushi hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkich ham jami va kichik sanoat korxonalarini uchun aniqlandi (3-jadval).

3-jadval
Xorazm viloyatida sanoat korxonalarini jamiga nisbatan ulushi²⁰

Yil	Ro‘yxatga olingan		Faol		Nofaol		Yangidan tashkil etilgan		Tugatilgan	
	Kichik korxona	Jami korxona	Kichik korxona	Jami korxona	Kichik korxona	Jami korxona	Kichik korxona	Jami korxona	Kichik korxona	Jami korxona
2014	18,8	15,1	18,9	15,2	16,2	12,3	24,7	20,9	18,3	17,8
2015	19,1	15,4	19,2	15,5	17,9	12,9	21,2	20,4	20,8	20,1
2016	18,2	14,6	18,1	14,7	19,1	13,7	17,1	15,9	18,2	17,8
2017	19,0	14,8	19,2	15,1	12,9	8,4	23,2	22,1	19,0	18,2
2018	19,5	15,7	19,6	15,8	18,2	13,5	24,6	22,9	17,4	13,0
2019	20,0	16,1	20,1	16,2	17,7	14,5	22,2	19,4	17,7	17,4
2020	19,6	16,4	19,6	16,4	19,8	16,5	19,8	19,1	18,3	17,6
2021	19,2	16,6	19,1	16,6	19,5	17,2	20,8	20,4	20,5	17,3
2022	19,5	17,1	19,4	17,1	20,4	17,8	22,2	21,5	19,9	19,3


Ya’ni, viloyatda 2014-yil birinchi yanvar holatiga ro‘yxatdan o’tgan kichik korxonalarining 18,8 foizi jami korxonalarining 15,5 foizi sanoat sohasiga tegishli bo‘lgan. Mazkur ko‘rsatkichlar o‘zgarishida tadqiq qilinayotgan davrda umumiy tendensiya mavjud emas. Ro‘yxatga olingan kichik korxonalar bo‘yicha sanaotning

¹⁹ Muallif ishlanmasi.

²⁰ Muallif ishlanmasi.

ulushi eng maksimal qiymatiga 2019-yilda erishgan bo‘lsa, jami korxonalarda 2022-yilga to‘g‘ri kelmoqda. Ya’ni, 2016-2017-yillardagi ulushni pasayishini hisobga olmaganda viloyatda sanoat korxonalarining jamiga nisbatan ulushi o‘sish sur’atiga ega bo‘lgan. Sanoat sohasidagi jami va kichik faol korxonalarining ulushi ba’zi yillarni hisobga olmaganda ro‘yxatga olingan korxonalaridagi ulushiga nisbatan yuqori bo‘lishi sohadagi korxonalarining faoliyat darajasi nisbatan yuqoriligini asoslaydi. Biroq viloyatda kichik sanoat korxonalarini faoliyat darajasini boshqa sohalarga nisbatan oxirgi ikki yilda pasayishi kuzatilmogda.

Viloyatda sanoat sohasidagi kichik biznes subyektlari faoliyati samaradorligini baholash maqsadida har bir subyektga to‘g‘ri keladigan ma’lumot qarab chiqildi. Ushbu tahlilni amalga oshirish uchun kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqilgan sanoat mahsulotlari qiymati 2010-yil narxlariga o‘tkazildi. Olingan natijani viloyatda faol bo‘lgan kichik biznes subyektlari soniga bo‘lish orqali har bir kichik biznes subyektiga to‘g‘ri keladigan mahsulot miqdori aniqlandi (3-rasm).



3-rasm. Xorazm viloyatida sanoat sohasidagi har bir kichik biznes subyektiga to‘g‘ri keladigan mahsulot miqdori (mln. so‘mda)²¹

Amalga oshirilgan tahlil natijalaridan ma’lum bo‘lishicha, viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning real qiymati o‘sish sur’atiga ega bo‘lgan bir sharoitda kichik biznes subyektlarining sanoatdagagi ulushining kamayishi kuzatilmogda. Buning asosiy sabablari sifatida sohada faoliyat ko‘rsatayotgan har bir kichik biznes subyektiga to‘g‘ri keladigan real mahsulot miqdorining kamayganligidir va bu bevosita korxonalarini boshqarish hamda faoliyat samaradorligini ta’minlash bilan bog‘liq muammolarning mavjudligidan dalolat beradi. Umumiylis ob’ektida viloyatda jami sanoat mahsulotlarini yetishtishtirish hajmi o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lmoqda.

Samardorlik har qanday faoliyatni asosiy mezoni hisoblanadi. Hozirgi zamон iqtisodiy adabiyotlarida, metodik ko‘rsatma tavsiyanomalarda samaradorlikni baholash uni hisob-kitob usullari ko‘plab ko‘rsatilgan. Ammo shunga qaramasdan, mavjud usullarni o‘rganish, ularni tahlil qilish, yangi kashf bo‘layotgan ko‘rsatkichlarni hisobga olish hozirgi davrning talabi. Masalan, qo‘shilgan qiymat, ishni ixtisosliklardan foydalanib, yangi yaratilgan materiallarni hisobga olish, klassterlash va boshqalar.

²¹ muallif ishlanmasi.

Samaradorlikning ko‘lami ishlab chiqarish ko‘lamiga ham bog‘liq. Shu sababli ishlab chiqarish kichik biznes va tadbirkorlik subyektlariga samaradorlikni universal tushuntirib berish ancha murakkab holat. Chunki bu mezon va ko‘rsatkich ularga ham aloqador. Masalan, katta korxonalarda samaradorlikni aniqlash uchun ko‘rsatkichlar bir nechta guruhlarga bo‘linadi. Ammo shunga qaramasdan, biz kichik biznes subyektlarining samaradorligi tushunchasiga o‘z ifodamizni berishga harakat qildik. Ya’ni kichik biznes subyektlari samaradorligi, ularning maxsus ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan har bir so‘mga daromad keltiruvchi jarayondir. Kichik biznesning imkoniyatlari va o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ushbu tushuncha to‘g‘ri bo‘lsa kerak deb o‘ylaymiz. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining samadorligini aniqlashda, uni baholash ko‘rsatkichlarini to‘g‘ri tanlash muhim vazifadir. Chunki yuqorida aytib o‘tilganidek, kichik korxonalarining faoliyatini baholovchi ko‘rsatkichlar ko‘p emas. Shu sababli bunda ba’zi bir qiyinchiliklar paydo bo‘lishi mumkin.

Kichik biznes subyektlari faoliyati samaradorligini baholashning realligini ta’minlashda qo‘sishimcha sifatida bir guruh koeffitsiyentlarni o‘rganish va ulardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu koeffitsiyent turlicha rentabellikka asoslangan iqtisodiy jarayon va operatsiyalarni hisoblashda foydalaniladi. Ko‘rsatkichlarni korrelyatsiya, diskontlash va boshqa matematik usullar bilan amalga oshiriladi. Shu sababli o‘z uslubiyatimizning realligini ta’minlash uchun ishimizda bir qator koeffitsiyentlar ishlab chiqdik va ulardan foydalanishi taklif etdik.

Aktivlar rentabelligini oshirib borish korxonalar oldida turgan muhim vazifadir. Shu sababli aktivlar rentabelligi koeffitsiyentini hisoblash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu masalani ikki koeffitsiyent asosida hal qilish mumkin: aktivlar rentabelligi koeffitsiyenti va asosiy real kapital koeffitsiyenti.

Aktivlar rentabelligi koeffitsiyentini aniqlash uchun (K_{ar}) sof foydani (S_f) aktivlarga (A) nisbatli olinadi. U quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$K_{ar} = S_f / A \quad (3)$$

Amaliyotda bu koeffitsiyent kichik biznes korxonalari raqobatbardoshligi darajasini va uni o‘rtacha tarmoq ko‘rsatkichlari bilan taqqoslash uchun foydalaniladi. Odatda, bu ko‘rsatkich 5-10 foiz oralig‘ida bo‘lishi lozim. Ushbu ko‘rsatkich qo‘yidagi formula asosida hisoblanadi:

$$K_{ar} = S_f * A_a \quad (4)$$

Bu erda: K_{ar} – aktivlar rentabelligi koeffitsiyenti, S_f – sotish foydasi, A_a – aktivlar aylanmasi.

Ushbu koeffitsiyentni quyidagi formula asosida ham hisoblash mumkin:

$$K_{ar} = \frac{S_f}{S_s} * \frac{S_s}{A_q} \quad (5)$$

Bunda: S_f – sof foyda, S_s – sof sotuv hajmi, A_q – aktivlar qiymati.

Asosiy kapital rentabelligini hisoblash uchun qo‘yidagi shakldan foydalanish mumkin:

$$K_{rk} = \frac{S_f}{Aq} \quad (6)$$

Bu erda: K_{rk} – real asosiy kapital rentabelligi koeffitsiyenti, S_f – sof foyda, K_a – asosiy kapital.

Ushbu koeffitsiyent kichik biznes subyektlarida bo‘lgan aylanma va noaylanma mablag‘larni rentabellik darajasini tavsiflaydi. Bundan tashqari, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarida shaxsiy kapital mavjud. Kichik korxona egalari tavakkal asosida, o‘z mablag‘lariga ishonib tadbirkorlik faoliyatini boshlaydilar, so‘ngra boshqa mablag‘lardan foydalanadilar. Shu sababli shaxsiy kapitaldan foydalanish darajasi qanday natijalarga olib kelishi mumkinligini shaxsiy kapital rentabelligi orqali amalga oshiradilar. Buni quyidagi formulalar ifodalaydi:

$$K_{shk} = S_f / K_{sh} \quad (7) \quad K_{ri} = F_s + \frac{Tf}{Ksh} \quad (8)$$

Bu erda: K_{shk} – shaxsiy kapital rentabelligi, S_f – sof foyda, K_{sh} – shaxsiy kapital, Kri – investitsiya rentabelligini koeffitsiyenti, F_s – soliqqa tortishiga bo‘lgan fond, Tf – to‘langan fondla, Ksh – shaxsiy kapital.

Bulardan tashqari, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining samaradorligini baholaydigan boshqa koeffitsiyentlar ham mavjud. Ularga aksiyadorlik daromadi rentabelligi koeffitsiyenti, dividentlarni to‘lash koeffitsiyenti joriy likvidlik koeffitsiyenti, aktivlar aylanmasi koeffitsiyenti, mulkchilik koeffitsiyenti va boshqalar kiradi va ular yuqoridagi koeffitsiyentlar kabi hisoblanadi. Xulosa o‘rnida aytish joizki, taklif etilgan uslubiy qo‘srimcha sifatida bu sohadagi mavjud usul va uslubiyatlar qatorida foydalanish mumkin. Uning boshqa uslublari sodda va oddiy hisoblar bilan aniqlanadi. Shu sababli natijalar real bo‘lishini ta’minlaydi. Ushbu uslublarni kichik biznes subyektlarini baholashda foydalanish soha rivojini ta’minalashdagi yangi bir harakat sifatida qaraladi. Uning foydalilagini amaliyotda ko‘rsatadi.

Dissertatsiyaning “**Kichik biznes va tadbirkorlik sub’yektlarini tartibga solish va samaradorligini baholash uslubiyatini takomillashtirish**” deb nomlangan uchinchi bobida viloyat sanoatida kichik biznes qo‘llab-quvvatlash va infratuzilmasini tashkil etish, mintaqada sanoat mahsuloti ishlab chiqarishda kichik biznesning rolini oshirishning istiqbolli yo‘nalishlari keltirib o‘tiladi.

Tadqiqotlarimiz natijalariga ko‘ra, sanoat sohasida faoliyat olib borayotgan kichik biznes sub’yektlarining miqdor jihatdan ijobiy natijalarga erishish ta’milanayotgan bo‘lishiga qaramasdan nisbiy va sifat ko‘rsatkichlaridagi salbiy jihatlar soha rivojini ta’minalash, amaldagi infratuzilmani yanada takomillashtirish bilan bog‘liq muammolar mavjudligidan dalolat bermoqda. KBXT sub’yektlarining rivojini ta’minalashdagi muhim muammolardan biri bu sanoat tovarlari sifatining talab darajasida emasligi bo‘lib, bu esa nafaqat jahon bozorida, balki mahalliy bozordagi raqobatbardoshlikni ta’minlay olmayapti.

Shu sababli, kichik biznes sub'yeqtari faoliyatini samaradorligini oshirish uchun quyidagi muammolar hal qilinishi lozim:

birinchidan, katta miqyosda yaratilgan infratuzilma ob'yeqtalarini yuqori darajada bilim, ko'nikma, tajriba hamda boshqarish mahoratiga ega bo'lgan kadrlar bilan ta'minlash. Buning uchun yangi mutaxassisliklarni joriy qilish, xorijiy universitetlar bilan ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish;

ikkinchidan, kichik biznes sub'yeqtariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdagi kamchiliklarni bartaraf etish kichik biznes, jumladan, sanoat sohasidagi kichik tadbirkorlik sub'yeqtari rivojining muhim omili hisoblanadi. Fikrimizcha, kichik biznes sub'yeqtarining xalqaro moliyaviy institutlar bilan munosabatlarini rivojlantirish, ularga biznes loyihamar tayyorlashda ko'maklashuvchi maxsus konsalting xizmatlarini rivojini ta'minlash lozim;

